

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342



Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 4. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 4 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

| | |
|--|-------|
| <i>Qurbanov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> | |
| "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI..... | 12-17 |
| <i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> | |
| AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI | 18-23 |
| <i>Tursunov Farrukh Gulomovich</i> | |
| ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР | 24-28 |
| <i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> | |
| FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI | 29-34 |
| <i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> | |
| YEVROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI..... | 35-40 |
| <i>Eanova Nilufar Pulatovna</i> | |
| MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR | 41-46 |
| <i>Abdurahimova Saboqhat Erqash қизи</i> | |
| БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ | 47-53 |
| <i>Toshturov Shuxrat</i> | |
| MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI | 54-60 |
| <i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> | |
| AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA) | 61-65 |
| <i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> | |
| QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI | 66-70 |

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

| | |
|---|---------|
| <i>Sultonov Bahodir Fайзуллаевич, Turaeva Gulizahro Kaxhorovna, Norbўtaev Baxtiёр Abdurahimovich</i> | |
| СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ | 71-78 |
| <i>Abdiganieva Zarapshan Salieva</i> | |
| YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI | 79-85 |
| <i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> | |
| QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI | 86-94 |
| <i>Rakhimov Oйбек Bахтиёрович</i> | |
| СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ | 95-99 |
| <i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> | |
| СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ | 100-110 |

| | |
|---|---------|
| <i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> | |
| BULUTLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH | |
| YO'LLARI | 111-125 |

| | |
|--|---------|
| <i>Fatmaхова Муниса Абдухамитовна</i> | |
| ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ | |
| КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ | 126-133 |

| | |
|---|---------|
| <i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> | |
| SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY | |
| MEXANIZMNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA | 134-140 |

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

| | |
|--|---------|
| <i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> | |
| RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA | |
| TAMOYILLARINING AHAMIYATI | 141-147 |

| | |
|---|---------|
| <i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> | |
| IJTIMOIY TEKNOLOGIYALAR HAqidagi G'OYALARNING SHAKLLANISH | |
| EVOLYUTSIYASI | 148-154 |

| | |
|---|---------|
| <i>Каримова Гулчехра Абдукаримовна</i> | |
| ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС | |
| ЖИҲАТЛАРИ | 155-163 |

| | |
|---|---------|
| <i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> | |
| ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA BAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH | |
| NAZARIYASI TALQINIDA | 164-168 |

| | |
|--|---------|
| <i>Muminov Nozim Naimovich</i> | |
| THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND | |
| TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST | 169-175 |

| | |
|--|---------|
| <i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> | |
| СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ | 176-180 |

| | |
|--|---------|
| <i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> | |
| SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI | 181-184 |

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

| | |
|--|---------|
| <i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> | |
| ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛарнинг | |
| ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ | 185-191 |

| | |
|--|---------|
| <i>Петрухина Наталья Михайловна</i> | |
| КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО | |
| СОВРЕМЕННИКОВ | 192-197 |

| | |
|--|---------|
| <i>Исаев Оман Рисалиевич</i> | |
| ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ | 198-205 |

| | |
|---|---------|
| <i>Родина Ирина Витальевна</i> | |
| АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА | |
| «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» | 206-211 |

| | |
|--|---------|
| <i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> | |
| THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE | |
| OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS | 212-220 |

| | |
|---|---------|
| <i>Erkinova Marxobo</i> | |
| ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI | 221-229 |
| <i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> | |
| O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI | 230-234 |
| <i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> | |
| THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS | 235-244 |
| <i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> | |
| PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION | 245-250 |
| <i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV BAHONING IFODALANISHI | 251-254 |
| <i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI | 255-260 |
| <i>Абдуллаева Нулуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> | |
| СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ | 261-266 |
| <i>Xayrulloeva Sitora Lutfulloevna</i> | |
| PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS | 267-272 |
| <i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> | |
| “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” | 273-279 |
| <i>Убоженко Анна Станиславовна</i> | |
| ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ | 280-285 |
| <i>Tukhtayeva Наргисхон Исамутдиновна</i> | |
| ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ | 286-292 |
| <i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI | 293-297 |
| <i>Алибаева Лола Намазовна</i> | |
| ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ | 298-303 |
| <i>Eshqurbanova Aziza Bozor qizi</i> | |
| DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI | 304-308 |
| <i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> | |
| O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR | 309-316 |
| <i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> | |
| TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH | 317-323 |
| <i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> | |
| GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI | 324-330 |

Asqarova Madina Boymurod qizi

KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI 331-334

Калниязов Есемурат Шамшетович
ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ 335-342

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Bahodir To'raev

HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI 343-351

Tursoatov Содик
РАФБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ 352-357

Хидиров Фурқат Шуқуруллаевич
МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИННИГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ 358-363

Rahimbaev Уткир Файзуллаевич
ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ 364-372

Tursynbaev Азизбек Халмурзаевич
МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ 373-377

Yakubov Abduraxmon Turayevich
TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI 378-382

Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli
YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENTSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA 383-387

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Хайров Расим Золимхон угли
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА 388-395

To'rayev Panji To'xtayevich
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH 396-400

Xushnazarova Ma'mura Nodirovna
TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FAOLLIKNING AHAMIYATI 401-406

Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna
TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH 407-411

Turdimurodov Dilmurod Yo'l doshevich
SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI 412-418

| | |
|--|---------|
| <i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> | |
| ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ | |
| ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА | 419-426 |
| <i>Назарова Озода Шавкатовна</i> | |
| СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В | |
| ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ | 427-432 |
| <i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> | |
| OLIY O'QUV YURLARIDA XORIJY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI | |
| QO'LLASH | 433-438 |
| <i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> | |
| BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHIYATINI OSHIRISH | |
| METODIKASI | 439-444 |
| <i>Умирзокова Сурайё</i> | |
| ТАЛАБАЛАРНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ | |
| МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ | 445-451 |
| <i>Olimova Nigora</i> | |
| MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINING | |
| AHAMİYATI | 452-463 |
| <i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> | |
| "ELEKTROMAGNETIZM" BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMİYATI | |
| | 464-471 |
| <i>Sobirova Oygul Alimovna</i> | |
| BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING | |
| MAVJUD HOLATINI TAHLILIY BAHOLASH | 472-479 |
| <i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> | |
| IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING | 480-486 |
| <i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> | |
| TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O`QITISH | |
| TEXNOLOGIYASINING SAMARALI JIHATLARI | 487-492 |
| <i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> | |
| O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY | |
| FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI | 493-498 |
| <i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> | |
| TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH | |
| METODIKASI | 499-505 |
| <i>Egamberdiyeva Feruza Abdumannonovna</i> | |
| MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI | |
| LOYIHALASH | 506-510 |
| <i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> | |
| ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ | |
| ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА | 511-516 |
| <i>Курбонов Дониёрбек Каҳрамонович</i> | |
| ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО | |
| МЫШЛЕНИЯ | 517-524 |

Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi
IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING
INTERAKTIV USULLARI 525-532

Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович
ЎҚУВ МАШГУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 533-539

Sobirova Oygul Alimovna
Qo'qon DPI tayanch doktoranti

**BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILIY BAHOLASH**

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning mavjud holatini tahliliy baholash ishlari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning milliy va xorijiy tajribalarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Kompetentlik, musiqa o'qituvchisi, til istemoli, rivojlanish, mumtoz musiqa, madaniyat, tadqiqot.

Sobirova Aygul Alimovna
doctoral student of Kokan SPI

**ANALYTICAL ASSESSMENT OF THE CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF
METHODOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE MUSIC TEACHERS**

Abstract. This article describes the analytical assessment of the current state of development of methodical competence in future music teachers. The article also focuses on national and foreign experiences of developing methodical competence in future music teachers.

Keywords. Competence, music teacher, language requirement, development, classical music, culture, research.

Собирова Айгуль Алимовна
Базовый докторант Кокан ГПИ.

**АНАЛИТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ РАЗВИТИЯ
МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ**

Аннотация. В данной статье представлена аналитическая оценка современного состояния развития методической компетентности будущих учителей музыки. В статье также уделено внимание отечественному и зарубежному опыту формирования методической компетентности будущих учителей музыки.

Ключевые слова. Компетентность, учитель музыки, языковые потребности, развитие, классическая музыка, культура, исследования.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N69>

Kirish. OTMda talabalarning kasbiy malaka, xususan, metodik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish bevosita bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tarixi bilan chambarchas bog'liq. Garchi "kompetentlik" tushunchasi xorijiy mamlakatlarda o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab til iste'molida faol qo'llanila boshlagan bo'lsa-da, sobiq sotsialistik mamlakatlar, shu

jumladan, O'zbekistonda ham mutaxassisning kasbiy kompetentligi ushbu tushunchaga muqobil bo'lgan "kasbiy malaka", "kasbiy mahorat" atamalari bilan yuritib kelingan.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan asoslovchi tajriba davrida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish muammosini tadqiq qilishda ushbu masalaning musiqa ta'limi amaliyotida o'rganilganlik holatini tahlil qilishga e'tibor qaratildi. O'rganish natijalari tadqiqot muammosi bevosita bo'lmasa ham bilvosita bir guruh tadqiqotlar doirasida hal qilinganligini ko'rsatdi.

E.M.Fayzullayev tomonidan olib borilgan tadqiqotda bo'lajak musiqa o'qituvchilarida badiiy didni shakllantirish [1.B.163] muammosini tadqiq qilishga e'tibor qaratilgan. Muallifning fikriga ko'ra "bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy didini, shakllantirishda milliy musiqiy meros, an'analardan unumli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mumtoz milliy musiqaning betakror namunasi bo'lgan maqomlarda musiqiy shakl va maqom (lad) tuzilishi o'z ifodasini topgan. Talabalarga mumtoz musiqaning asl namunasi bo'lgan maqomlar haqida bataysil tushunchalar berish ularning badiiy didini o'stirishda muhim o'rinni tutadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mutaxassis sifatida maqomlarning tarkibiy tuzilishini chuqur tahlil qila olishi, shuningdek, unga xos ijrochilik mahoratidan ham yetarli darajada xabardor bo'lishi lozim".[1.B.15]

Tahlil va natijalar. O'z tadqiqotida E.M.Fayzullayev o'zbek mumtoz musiqasi vositasida shakllangan badiiy didning tarkibiy unsur (element)lari sirasiga quyidagilarni kiritadi:

1. Musiqiy asarning g'oyaviy mazmuni hamda ularda aks etgan badiiy obrazlarni aniq tasavvur qilish.
2. Musiqiy asar g'oyaviy mazmunining ohanglarda to'la aks etishiga e'tibor berish, ulardagi o'zaro mutanosiblik va sinxronlikni anglay olish.
3. Kuy va ohangni mukammalashtiruvchi: nola, qochirim va boshqa bezaklarni mukammal ijro eta olish va baholay olish.
4. Ijrochining ijro mahoratini baholay olish.[1.B.24]

E.M.Fayzullayev tomonidan tanlangan ilmiy-pedagogik muammoni hal qilar ekan, tadqiqotchi musiqa ta'limini tashkil qilishda quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishini aytib o'tiladi:

1. Bir guruh pedagoglar (musiqa rahbarlari) o'zbek mumtoz musiqasining o'quvchi va talabalarda badiiy didini shakllantirishdagi roli va ahamiyatini yuqori baholasalar-da, biroq yetarli darajada bu jarayonning samarali kechishini ta'minlovchi metodik bilimlarga ega emaslar. Xatto "badiiy did" tushunchasining mohiyati va uning tarkibiy unsur (element)larini yoritib bera olmaydilar. Shuningdek, o'quvchi va talabalarning badiiy didini shakllantirishda samaradorlikka erishish to'g'risida shaxsiy takliflarni ilgari sura omaydi.

2. Aksariyat pedagoglar (musiqa rahbarlari) esa shaxsda badiiy didni shakllantirish masalasiga mutlaqo noto'g'ri yondashadilar. Ya'ni ularning fikricha, o'quvchi va talabalarda badiiy didni shakllantirishga alohida pedagogik ta'sir ko'rsatish shart emas, bu jarayon tabiiy ravishda kechishi lozim. Ularning bunday yondashuvlari "shaxsning kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (ijtimoiy omil) va maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan tarbiya alohida rol o'ynaydi" mazmunidagi pedagogik qarashlarga ziddir.

3. Pedagoglar (musiqa rahbarlari)ning deyarli barchalari o'zbek mumtoz ashulalarini o'rganishda she'riy matn, asosiy g'oya mohiyatini ochib berish maqsadida so'zlarning qo'llanilishiga alohida e'tibor berish zarurligini to'la e'tirof etsalar-da, ammo mashg'ulotlarni

tashkil etishda she'riy matn tahlilini amalga oshira olmaydilar. Shuningdek, tahlilning samarali bo'lishini ta'minlovchi usul va metodlardan foydalana olmaydi.

4. Aksariyat pedagoglar (musiqa rahbarlari)da mumtoz ashulalarni nota yordamida kuylash malakasi shakllanmaganligi sababli ohanglarni o'z imkoniyatlariga moslashtirib oladi. Buning sababini o'zbek mumtoz ashulalarini ijro etishga oid maxsus adabiyotlarning yo'qligi bilan izohlaydi.

Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish lozim, E.M.Fayzullevning tadqiqotida muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Bizning fikrimizcha, asosiy kamchilik – bo'lajak musiqa o'qituvchilarida badiiy didni shakllantirish jarayoni mohiyatining bosqichma-bosqich yoritilmaganidir. Tadqiqotga shu nuqtayi nazardan yondashilganda amaliyotchi o'qituvchilar uchun tayyor metodik ishlanmalar tayyorlangan bo'lardi.

G.I.Ualiyeva, G.Sh.Siddiqova tomonidan tuzilgan o'quv-uslubiy majmua (O'UM)da boshlang'ich hamda o'rta sinflarda "Musiqa madaniyati" fanini doirasida o'quvchilar tomonidan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishiga erishish maqsadga muvofiqligi aytildi:

1) boshlang'ich sinflarda:[2.B.28]

musiqa badiiy san'at ekanligini bilishlari, kuyga tavsif bera olish; xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'lish; cholg'u asboblarini bilish va tovush tembrlaridan ularni farqlay olish; musiqaga oid oddiy atamalarni bilish; nota yozuvlarini bilish va amalda qo'llay olish; birgalikda va yakka holda kuylay olish; musiqaning ifoda vositalarini bilish; ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olish;

2) V-VII sinflarda: har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish; Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslubi xususiyatlari, mashhur musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik)ni bilish, ularning mashhur ijrochilarini bilish; maqom haqida tushuncha, o'zbek maqomlari va ularni asosiy turkumlari, shashmaqom, uning cholg'u ashula yo'llari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari, cholg'u va aytish yo'llarini bilish; O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xhashligi va o'ziga xosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish; ikki ovozli qo'shiqlarni sof ohangda kuylash, major uch tovushligidan minor uch tovushligiga mustaqil kuylab o'ta olish; kuylashda forte va piano dinamik tuslarini bajarish, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baxolay bilish; mashhur qo'shiq va ashulalar, yor-yorlar hamda ushoqlarning mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish; kuylash va tinglash madaniyatiga ega bo'lish; musiqa naqadar qadimiya san'at ekanligi, o'zbek xalq musiqasining ildizlari uzoq davrlarga taqalib, asrlar, yillar davomida sayqal topib, rivojlanib kelganligi, shu bois xalqimizning boy madaniyatini, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirishini va nihoyat, o'zbek milliy musiqamiz umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi ekanligini tasavvur qila olish.

Ayni o'rinda aytib o'tish lozim, mualliflar tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan musiqa ta'limiga oid bilim, ko'nikma, malakalarni belgilashda ularning yosh, psixologik va fiziologik imkoniyatlarini qat'iy inobatga olish maqsadga muvofiqliр. Bizning yondashimizga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida ularning yosh va psixologik nuqtayi nazardan hali musiqa badiiy san'at ekanligini bilish, kuyga tavsif berish, xalq musiqa

merosi haqida tushunchaga ega bo'lish imkoniyati mavjud emas. Boshlang'ich sinflarda asosiy urg'u bolalar folklor, shuningdek, hazil qo'shiqlar, ularga mos keladigan kuylarni tinglash, taqlid yordamida kuylash, kuy va qo'shiqlarning ohangiga mos ritmik harakatlarni bajarishga ustuvorlik berish metodik jihatdan to'g'ri bo'lgan bo'lardi.

Mualliflar musiqa darslarida musiqa tinglash; jamoa bo'lib kuylash; o'quvchilarning musiqa savxodini oshirish; o'quvchilarda musiqa ijodkorligini tarbiyalash bilan birga ularda ritmik harakatlarni tashkil qilish qobiliyatini ham rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanini aytib o'tadi.

A.I.Odilov, J.J.Kozimovlar musiqa darslarida innovatsion texnologiyalar, xususan, interfaol metodlarning qo'llanishi talabalar tomonidan o'quv materialining puxta o'zlashtirilishiga xizmat qilishiga alohida urg'u beradi. Bu o'rinda ular misol sifatida o'zbek xalq cholg'u asboblariga oid o'quv axborotini "Klaster" metodi yordamida yoritishga harakat qilishgan:



Tadqiqotchilarning e'tirofiga ko'ra, interfaol metodlarni qo'llagan holda darslarning tashkil etilishi talabalar tomonidan mavzuni chuqur o'rganish, avvalo, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat kiladi. O'quvchilarda mavzuga oid tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlash malakalari shakllanadi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarda tegishli mavzu bo'yicha tasavvurlarni vizual ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Sh.Omonqulova bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda modul texnologiyalarining ahamiyatini o'rganishga e'tibor qaratiladi. Muallif dastlab "modul" tushunchasining mohiyatini yoritishga urinadi. Uning fikriga ko'ra, modul – "fanning bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan, fundamental tushunchalarini o'rganishga yo'naltirilgan va didaktik tamoyil asosida tuzilgan o'quv materiallari birligi bo'lib, unda fan bo'yicha o'quv dasturlari qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tarzda tabaqalashtiriladi".[3.B.658]

N.A.Abdullayeva musiqa ta'limini o'qitish faoliyatida qo'llaniladigan innovatsion metodlar haqida so'z yuritar ekan ularni ikki guruhga ajratadi:

I. Ana'anaviy metodlar: musiqa o'qitishning og'zaki metodlari; musiqa ta'limida foydalaniladigan ko'rgazmali metodlar; musiqa ta'limida qo'llaniladigan amaliy metodlari.

II. Innovatsion metodlar: o'yin metodlari; taqqoslash metodlari; musiqiy uquvi, musiqiy eshitish qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishslash metodlari.



Muallif, shuningdek, musiqa ta'limida samarali bo'lgan innovatsion metodlarning mohiyatini ochib berishga harakat qiladi:

1. O'yin metodi. Asosan boshlang'ich guruhlarda yaxshi natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va mashg'ulotlarda o'yin va uning elementlari keng joriy etiladi. Boshlang'ich guruh bolalari serharakat va o'yinga moyil bo'ladi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar bolalarning musiqiy uquvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatinni rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi.

2. Taqqoslash metodi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal-xor ishlarida musiqa rahbari, bolalar va audio yozuvdagagi ijrolarini taqqoslashda, musiqa asarining tahlili va janrlarini belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarining templarini, turli cholg'ulardagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi.

3. Musiqa o'quvi, musiqiy eshitish qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishslash metodi. Musiqa uquvi sust bo'lgan bolalar bilan mashg'ulotlar jarayonida tabaqaviy guruhlarga bo'lib va mashg'ulotlardan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriladi.[4.B.24]

Rossiyalik mutaxassislar tomonidan tayyorlangan "Musiqi eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun onlayn-trenajyorlar. Musiqa akademiyasi" elektron formatdagi metodik material turli yoshdagagi ta'lim oluvchilarga ular tomonidan boshlang'ich musiqiy bilimlarni egallashga yordam beradi. Onlayn-trenajyor o'z ichiga quyidagi ikki turdag'i mashqlarni qamrab olgan:



Elektron manbada jamlangan mashqlar ikki guruhgaga ajratilgan:

I. Musiqani eshitita olish qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlar:

1. Eshitish orqali notani aniqlash.

2. Musiqiy diktant.

3. Eshitish orqali oraliq (interval)larni aniqlash.

4. Eshitish orqali intervallarning ketma-ketligini aniqlash.

5. Eshitish orqaliakkord (turli balandlikdagi bir nechta tovushlarning o'zaro birligi)ni aniqlash.

6. Eshitish orqaliakkordlarning ketma-ketligini aniqlash.

7. Eshitish orqali maqom (lad)larni aniqlash.

II. Musiqa nazariyasi.

1. Notani aniqlash.

2. Oraliq (interval)larning tuzilmasini aniqlash.


3. Akkordlarning tuzilishini aniqlash.

4. Tayanch belgilari bo'yicha musiqiy ohanlarni aniqlash


5. Musiqa parda (lad)larini aniqlash¹.

Elektron manbada jamlangan mashqlarning ixtiyoriy tanlangan biri ustiga sichqoncha bosilganda uning ostida turli topshiriqlardan iborat yangi oyna ochiladi. Masalan:


Eshitish orqali notani aniqlash




Interval tuzilmasini Aniqlash




Notalarni aniqlash




Maqomlar tuzilmasini aniqlash



Eshitish orqali intervallarni aniqlash



Eshitish orqaliakkordlarni aniqlash



¹ Теория музыки и упражнения для тренировки слуха // <https://nsportal.ru/music/ru>.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish muammosining mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan nazariy, shuningdek, OTM bo'lajak musiqa o'qituvchisi sifatida talabalarining metodik kompetentlik sifatlariga egaliklarini amaliy jihatdan o'rganilish natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. O'zbekiston va xorijda musiqa ta'limining sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga oid salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati musiqa ta'limini tashkil etishning umumiylashtirishiga bag'ishlangan.

2. Musiqa ta'limini metodik jihatdan tashkil qilish muammosiga bag'ishlangan kam sonli tadqiqot ishlarida ham bo'lajak ixtisoslik o'qituvchilarida metodik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish bevosita o'rganilmagan.

3. O'zbekiston sharoitida musiqa ta'limini o'qitish bo'yicha katta amaliy tajriba to'plangan bo'lishiga qaramay, mazkur tajriba o'qitish jarayoniga zarur darajada tatbiq qilinmagan.

4. Musiqa ta'limini amaliy-metodik jihatdan tashkil qilish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish holati mavjud ehtiyojni to'liq qondira olmaydi.

5. Ta'lim jarayonida foydalanilayotgan metodik resurslar zamonaviy ta'lim talablari darajasida emas. Bosma va elektron shaklda taqdim qilingan axborot resurslarida ham alohida mavzular bo'yicha tayyorlangan metodik ishlanmalar, o'quv loyihalari deyarli taqdim qilinmagan.

6. Zamonaviy sharoitda OTMdA o'qitiladigan musiqa ta'limi asoslariga oid nafaqat bosma, shu bilan birga elektron shaklda metodik resurslar – metodik tavsiyalar, ishlanmalar, loyihalar, tarqatma materiallarni tayyorlash hamda respublika miqyosida ommalashtirish maqsadga muvofiqdir.

7. Uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlari uchun ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, fiziologik imkoniyatlarini qat'iy inobatga olgan holda metodik resurslarni yaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Mazkur jarayonda o'zbekistonlik tadqiqotchilarning xorijilik mutaxassislar bilan o'zaro hamkorlikka erishishi yuqori saviyada g'oyaviy-nazariy, amaliy-metodik resurslarning yaratilishini ta'minlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, nazariy va amaliy jihatdan bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning mavjud holatini o'rganish vaziyat qoniqarli emasligini ko'rsatdi. Garchi O'zbekiston sharoitida musiqa ta'limini tashkil etish bo'yicha boy amaliy tajriba to'plangan bo'lsa-da, u o'qitish jarayoniga zarur darajada tatbiq qilinmagan. Musiqa ta'limini amaliy-metodik jihatdan tashkil qilish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish holati mavjud ehtiyojni to'liq qondira olmaydi. Ta'lim jarayonida foydalanilayotgan metodik resurslar zamonaviy ta'lim talablari darajasida emas. Mazkur holat musiqa ta'limini metodik tashkil qilish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishga yangi rakursda yondashish zarurligidan dalolat beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Fayzullaev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida badiiy didni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida): ped.fanl.nomz. ... dis. – T.: 2010. – 163 b

2. Musiqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majuma G' Tuzuv.: G.I.Ualieva, G.Sh.Siddiqova. – T.: TDPU, 2018. – 28-b.
3. Omanqulova Sh. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirish texnologiyalari G'G' Science and innovation. 2022. – Vol.1. Ussue 6. – pp. 658-659.
4. Abdullaeva N.A. Musiqa ta'limini o'qitish faoliyatidagi innovatsion metodlar G'G' <https://G'G'cyberleninka.ruG'articleG'nG'musi-a-talimini-itish-faoliyatidagi-innovatsion-metodlar>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 4 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).